Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

The interaction of different approaches during training is carried out by approaches: systemic, synergistic, person-oriented, competence-based, and cultural. This concept takes into account the theoretical foundations of innovative pedagogical technologies in education that affect the quality of training of a modern specialist and also offers an innovative vision of the essence of the studied pedagogical process.

**Conclusion.** The classification of innovative educational technologies by groups has been made. The content of open education is disclosed and the general model of open education is analyzed. The role of virtual and augmented reality technology is shown, which provides new opportunities for self-expression, encourages students to constantly work independently; technologies of artificial intelligence, neural networks, and machine learning, which allow the creation of more perfect natural user interfaces; telecommunication technologies in education to increase the motivation of students to study.

**BIBLIOGRAPHIC REFERENCES**

4. Adams, B., Cummins, M., Davis, A., Freeman, A., Hall, Giesinger, C., & Ananthanarayanan, V. (2017). “NMC Horizon Report: 2017” Higher Education Edition. Austin, Texas: The New Media Consortium, 46-47.

5. Biletska, O., Kuchai, T., Kravtsova, T., Bidyuk, N., Tretko, V., & Kuchai, O. (2021). The Use of the Activity Approach in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions. The Romanian Journal for Multidimensional Education, 13(2), 243-267. DOI: https://doi.org/10.18662/rrem/13.2/420

6. Chubukova, O. Yu., & Ponomarenko, I.V. (2018). Innovative technologies of augmented reality for teaching subjects in higher educational institutions of Ukraine. Problems of innovation and investment development, 16, 20-27. (In Ukranian)

Desyatov, T. M. (2020). Strategies and innovative technologies for the organization of the educational process in institutions of higher education in conditions of unforeseen challenges. Bulletin of the Bohdan Khmelnytskyi Cherkasy National University. Series: "Pedagogical Sciences", 2. https://pedejournal.cdu.edu.ua/article/view/3810

## MAMLAKATIMIZDA MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Shodiyeva Mahliyo Abdulla qizi**
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti Xorijiy til va adabiyoti 1-bosqich talabasi**
**Shodiyevamahliyo40**@gmail.com

**Annotatsiya**. O‘shbu maqolada mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari to‘g‘risida bir qanchq fikr hamda mulohazalar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar**:Taraqqiyot strategiyasi, milliy iqtisodiyot, YaIM, valyuta munosbatlari, turizm, fiskal siyosat, monetar.

**Kirish:** Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini tubdan rivojlantirish, iqtisodiyotning lokomativ tarmoqlarini aniq belgilab olgan holda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish imkoniyatlari yaratib kelinmoqda. Prezident taqdim etgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo‘nalishdan iborat bo‘lib, u avval qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va uning doirasida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli islohotlarning uzviy davomi ekanligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Yangi O‘zbekiston



Published: 23.12.2024

**Cite this article:** Shodiyeva Mahliyo Abdulla qizi (2024). Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1193

*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishi – milliy iqtisodiyotni, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarni Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari doirasida boshlangan islohotlarning davomi sifatida baholash mumkinligini aks ettiradi. Aynan shu Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning meyoriy-huquqiy asosi sifatida gavdalanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metadalogiyasi:**

2022–2026-yillardagi ustuvor vazifa sifatida, aynan iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish ko‘zda tutilganligida ham o‘ziga xos ma’no bor. O‘tgan besh yil, ya’ni 2017–2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida sanoatning yetakchi tarmoqlari (to‘qimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish materiallari sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar)ni rivojlantirish strategiyalari qabul qilindi. Bu ham milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning bir imkoniyati ekanligini ko‘ramiz. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, xususan paxta va g‘alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish orqali ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi oshirildi. O‘z navbatida, hududlarning iqtisodiy potentsialini oshirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, mazkur zonalarga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun tegishli imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi. Yetakchi tarmoqlarga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalari tashkil etilib, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur infratuzilmalar barpo etildi. Yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan innovatsion texnoparklar tashkil etilib, ularda zamonaviy ilm-fan yutuqlari orqali yaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.[1]

Shu bilan birga, O‘zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish orqali sayyohlik infratuzilmasi rivojlantirildi, sayyohlik xizmatlari tarkibining (ziyorat turizmi, tibbiy turizm, kino turizmi va hokazolar) yana ham kengaytirilishi natijasida mamlakatning sayyohlik potensiali yildan yilga oshib bormoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026-yillarda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlarda amalga oshirilgan islohotlarni samarali davom ettirish, mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish, 2030 yilga borib esa, O‘zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish maqsad qilingan. Bunga esa, o‘z navbatida, xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish orqali erishish ko‘zda tutilgan. O‘z o‘rnida aytish lozimki, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning samarali va jadal rivojlanishi mamlakatdagi YaIM hajmining ortishi va shu orqali aholi jon boshiga YaIM hajmining oshishiga ham olib keladi.

Qayd etish muhimki, 2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan eng muhim iqtisodiy islohotlardan biri, bu milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog‘liq amaliy qadamlar bo‘ldi. Shu bilan birga, pul-kredit (monetar) siyosati sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi, jumladan to‘lov tizimlari rivojlantirildi, chet el valyutasini cheklovsiz sotib olish imkoni yaratildi, naqd pul muammosi hal etildi, uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan bankomatlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tashqi savdoning liberallashtirilishi natijasida tashqi savdo hajmi ham jadal oshib bormoqda. Valyuta va tashqi savdoning liberallashtirilishi, iqtisodiyotga bozor

mexanizmlari tamoyillarining joriy etilishi, narxlarning erkinlashtirilishi va shu bilan bog‘liq boshqa islohotlar ortidan mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta’minlash, inflyatsiyani past darajada va barqaror ushlab turish ustuvor vazifa sifatida oldinga chiqdi. Shu bois, Taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish navbatdagi vazifa sifatida belgilandi. Zero, mamlakatda ichki narxlar barqarorligining ta’minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanib, bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish hamda rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zarur mezon sanaladi. Alohida e’tirof etish joizki, inflyatsiyaning past va barqaror ko‘rsatkichlari, iqtisodiy o‘sishdagi muvozanatni ta’minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholi yashash darajasini oshirishda muhim omil sanaladi[2]. Shu nuqtai nazardan, narxlar o‘sish sur’atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim.

O‘tgan 5 yil ichida O‘zbekistonning fiskal sohadagi siyosati tubdan o‘zgardi, xususan byudjetning shaffofligi va ochiqligi ta’minlandi, soliqqa tortishni soddalashtirish va takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish yuzasidan bir qator samarali choratadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish tizimi takomillashtirildi, bunda Oliy Majlisning byudjet jarayonidagi roli va o‘rni oshirildi, mahalliy hokimiyat vakillik organlarining vakolatlari kengaytirildi, «Tashabbusli byudjet» loyihasi ishga tushirildi. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasining suveren xalqaro obligatsiyalari chiqarilib, undan tushgan mablag‘lar mamlakat farovonligi yo‘lida strategik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirildi. Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026-yillarda O‘zbekistonda byudjet va tashqi qarz barqarorligini ta’minlash vazifasiga ustuvorlik berilmoqda. Sababi, mamlakatda fiskal defitsitning ortib borishi va tashqi qarzlarning xalqaro darajada belgilangan me’yorlardan oshib ketishi, albatta milliy iqtisodiyotga xavf tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, mazkur strategiyada byudjet mablag‘larining samarali sarflanishini ta’minlash maqsadida mahalliy byudjetlarning imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilishi ko‘zda tutilgan[3]. Fiskal sohada belgilanayotgan mazkur ustuvor vazifalar avvalgi islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanib, bu bir tomondan byudjet daromadlarini oqilona shakllantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarining samarali sarflanishiga sabab bo‘ladi, pirovard natijada esa, mamlakatda iqtisodiy faollik ortib makroiqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yillikda mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida bir qator strategik vazifalar belgilangan.

Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llabquvvatlash, biznes muhiti va zarur infratuzilmalarni yaratish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish, kambag‘allikni ikki barobar qisqartirish, hududlarni rivojlantirish va agrar sohani rivojlantirishga oid vazifalarga alohida ahamiyat berilgan[4]. Mazkur vazifalar Harakatlar strategiyasi doirasida samarali amalga oshirilgan islohotlarning uzviy davomi yoki boshqacha aytganda, yangi muvaffaqiyatning boshlanishi bo‘lib, u mamlakatning iqtisodiy farovonligini va boshlangan islohotlar samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa:** Mazkur maqolada mamlakatinizda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi ma’lumotlar tahlil qilindi. Ko‘rinib turibdiki hukumat tomonidan amalga tadbiq etilayotgan loyihalar va amalga oshirilayotgan ishlar davlatimizning dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlardan foydalanish orqali YaIM yanada oshirish, kambag‘allikni

qisqartirishga erishish hamda shu kabi boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi № PQ – 4477 sonli “2019 – 2030 yillarda O’zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi № PF-60-sonli 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi № 207 sonli Qarori.

4. https://lex.uz/acts/-1856013

## TEXNIKA FANLARI BILAN MATEMATIKA FANLARINING INTEGRATSIYASI.

**Sobirjonov Toxirbek Zuxridin o‘g‘li**
Farg‘ona politexnika instituti,
“Oliy matematika” kafedrasi assistenti,
s.tokhirbek96@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqola matematikani texnika fanlari bilan birlashtirishning chuqur afzalliklari va muammolarini o‘rganadi. U fanlararo hamkorlikning ahamiyatini o‘rganadi, ta'lim va tadqiqot sohasidagi integratsiyaning hozirgi holatini muhokama qiladi, mavzu bo‘yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi va sinergetik yondashuvni rivojlantirish usullarini taklif qiladi. Usullar, natijalar va munozaralarni har tomonlama o‘rganish orqali maqola matematika va texnika fanlarida innovatsiyalar va taraqqiyot uchun intizomlararo hamkorlikning muhimligini ta'kidlashga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Matematika, texnika fanlari, integratsiya, fanlararo, sinergiya, ta'lim, innovatsiya.

Matematika va texnika fanlari chorrahasi innovatsiyalar va kashfiyotlar uchun qulay zamin yaratadi. An'anaviy ravishda alohida fanlar sifatida qaralsa-da, matematikaning muhandislik, informatika va fizika kabi texnik sohalar bilan integratsiyasi murakkab Real muammolarni hal qilishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola matematikani texnika fanlari bilan birlashtirishning ahamiyatini o‘rganishga, uning oqibatlari, muammolari va ushbu domenlar o‘rtasida sinergiyani rivojlantirish uchun potentsial yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan.

Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish matematikani texnika fanlari bilan integratsiyalashning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotlar matematikaning muhandislik kabi sohalarda muammolarni hal qilish va tahlil qilishning asosiy vositasi sifatida rolini ta'kidladi, bu erda matematik modellar murakkab hodisalarni tushunish va bashorat qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, fanlararo tadqiqotlar ko‘p qirrali muammolarni hal qilish uchun matematik tajribani domenga xos bilimlar bilan birlashtirish muhimligini namoyish etdi. Biroq, intizomiy siloslar, fanlararo aloqaning etishmasligi va divergent metodologiyalar kabi muammolar samarali integratsiya uchun muhim to‘siqlar bo‘lib qolmoqda.

Matematikaning texnika fanlari bilan integratsiyasini o‘rganish uchun ushbu tadqiqot aralash metodlardan foydalanadi. Miqdoriy tahlil fanlararo tadqiqot hamkorliklarining tarqalishi va ta'sirini baholash uchun o‘tkaziladi, intervyu va so‘rovlar kabi sifatli usullar esa matematikada ham, texnik sohalarda ham amaliyotchilarning